BUDJET TASHKILOTLARIDA DAVLAT XARIDLARINI BOSHQARISHDAGI MUAMMOLAR VA ULARNI HAL ETISH STRATEGIYALARI

Turabov Sarvar Abdumalikovich,
Mustaqil tadqiqotchi
Email :sarvarbobur0210@mail.ru

Annotatsiya. O‘zbekiston Respublikasida budjet tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladigan davlat xaridlari jarayonidagi muammolar va ularni hal etish strategiyalarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Davlat xaridlari tizimi davlat mablag‘larini oqilona va samarali boshqarish, shuningdek, iqtisodiy barqarorlikka erishishning muhim omillaridan biri sifatida e’tirof etiladi. Maqolada davlat xaridlari jarayonida shaffoflikni ta’minlash, raqobatbardosh muhitni shakllantirish, va korrupsiyani kamaytirishga qaratilgan islohotlar, xususan, “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonun va so‘nggi yillarda raqamlashtirish yo‘nalishidagi sa’y-harakatlar batafsil tahlil qilingan. Shuningdek, OECD, World Bank, Transparency International va UNODC kabi xalqaro tashkilotlarning tavsiyalari asosida davlat xaridlari jarayonini yanada takomillashtirish bo‘yicha samarali yondashuvlar ko‘rib chiqiladi. Maqola O‘zbekistonda davlat xaridlarini elektronlashtirish orqali jarayonni shaffoflashtirish va inson omilini kamaytirish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirish imkoniyatlarini yoritadi. Moliyaviy nazoratni kuchaytirish, kichik va o‘rta biznes sub'ektlari uchun teng imkoniyatlarni yaratish va korrupsiyaga qarshi kurashish usullari ko‘rib chiqilib, xalqaro tajribalar asosida amaliy tavsiyalar beriladi. Tadqiqot natijalari davlat xaridlari tizimini isloh qilish, resurslarni oqilona taqsimlash va davlatning iqtisodiy samaradorligini oshirishda davlat xaridlarining muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi. Shuningdek, maqola davlat xaridlari orqali iqtisodiyotni rivojlantirish va kichik biznesning davlat xaridlarida faol ishtirokini ta’minlashga xizmat qiladigan samarali chora-tadbirlarni ishlab chiqish zaruriyatini ta'kidlaydi.

Kalit so‘zlar. Davlat xaridlari, byudjet tashkilotlari, shaffoflik, korrupsiyaga qarshi kurash, iqtisodiy samaradorlik, raqamlashtirish, kichik biznes sub'ektlari, xalqaro tajriba, moliyaviy nazorat, O‘zbekiston.

Kirish.

Budjet tashkilotlarida davlat xaridlarini boshqarish davlat mablag‘larini samarali taqsimlash va iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda muhim o‘rin tutadi. Davlat xaridlari jarayoni nafaqat iqtisodiy resurslarni oqilona taqsimlash imkonini beradi, balki shaffoflikni oshirish va korrupsiyani kamaytirish vositasi sifatida ham xizmat qiladi. “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonun (O‘zbekiston Respublikasi Qonuni, 2021-yil 22-aprel, O‘RQ-684-son) ushbu jarayonni tartibga solib, davlat ehtiyojlari uchun zarur bo‘lgan tovarlar va xizmatlarni adolatli sharoitda ta’minlashga qaratilgan. Ushbu qonun asosida shaffoflik va ochiqlikning ta’minlanishi, davlat xaridlarida raqobat muhitining shakllanishi davlat iqtisodiy samaradorligini oshirish yo‘lida muhim qadamdir. So‘nggi yillarda O‘zbekistonda davlat xaridlarini takomillashtirish uchun qator islohotlar amalga oshirilib, jarayonlarni raqamlashtirish va elektron davlat xaridlari tizimini joriy etish orqali samaradorlikka erishishga katta e’tibor qaratilmoqda. OECD va World Bank ma’lumotlariga ko‘ra, davlat xaridlarining samaradorligini oshirishda raqamli tizimlar orqali ochiqlik va samaradorlikni ta’minlash global amaliyotda o‘zini oqlagan yondashuvlardan biridir. OECDning 2019-yilda chop etilgan hisobotida davlat xaridlarining shaffofligi va samaradorligini oshirish xalqaro miqyosda eng samarali boshqaruv amaliyotlaridan biri sifatida taqdim etilgan.

Muminov va Zakhirovaning tadqiqotida davlat xaridlarini raqamlashtirishning iqtisodiy samaradorlikni oshirishdagi o‘rni yoritilgan bo‘lib, unda davlat xaridlarida elektron savdo platformalarini rivojlantirish orqali shaffoflik va raqobatbardoshlikni oshirish imkoniyatlari qayd etilgan (Muminov va Zakhirova, 2020). Bunda xalqaro tajribalar asosida kichik va o‘rta tadbirkorlik sub’ektlarini davlat xaridlariga kengroq jalb qilish orqali iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirishning afzalliklari ta’kidlangan. Isroilov, Abduganiyev va Ibragimov tomonidan olib borilgan tadqiqotda davlat xaridlarida moliyaviy nazorat tizimlarini kuchaytirish orqali korrupsiya xavfini kamaytirish va samaradorlikni oshirish masalalari ko‘tarilgan. Ularning tadqiqotlari moliyaviy intizomni mustahkamlash va korrupsiya darajasini kamaytirish uchun ichki va tashqi moliyaviy nazorat mexanizmlarining ahamiyatini ta’kidlaydi (Isroilov, Abduganiyev va Ibragimov, 2020). Transparency International va UNODC kabi xalqaro tashkilotlar ham davlat xaridlarida shaffoflikni ta’minlash uchun samarali nazorat tizimlarini yaratish zarurligini ko‘rsatib, korrupsiyaga qarshi kurashda ushbu usullarni global standart deb hisoblaydi. Mazkur maqolada O‘zbekistonda byudjet tashkilotlarida davlat xaridlarini boshqarishda yuzaga keladigan asosiy muammolar va ularni hal etish strategiyalari tahlil qilinadi. OECD, World Bank, Transparency International va UNODC kabi tashkilotlarning xalqaro tajribasiga asoslanib, davlat xaridlarida shaffoflikni oshirish, raqobatni kuchaytirish va korrupsiyaga qarshi kurash yo‘llari bo‘yicha amaliy takliflar ishlab chiqiladi. Shu orqali davlat xaridlari tizimining samaradorligini oshirish va iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashga qaratilgan kompleks yondashuvlar yoritiladi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur tadqiqot byudjet tashkilotlarida davlat xaridlarini boshqarishda yuzaga keladigan asosiy muammolar va ularni hal etish yo‘llarini o‘rganishga qaratilgan. Tadqiqotda davlat xaridlari bilan bog‘liq normativ-huquqiy hujjatlar, xususan, O‘zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonuni (2021-yil 22-aprel, O‘RQ-684-son), ilmiy maqolalar va tegishli tadqiqotlar tahlil qilinib, davlat xaridlari tizimida raqobatni oshirish, shaffoflikni ta’minlash hamda kichik biznes sub’ektlari uchun imkoniyatlarni kengaytirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi. Metodologik jihatdan, tadqiqotda normativ-huquqiy hujjatlar tahlili va ilmiy adabiyotlarni o‘rganish usullaridan foydalanildi, bunda muammolarni aniqlash va ularning yechimlari bo‘yicha mavjud yondashuvlar sistematik tarzda tahlil qilindi.

Tahlil va natijalar.

Mazkur tadqiqot O‘zbekiston Respublikasida davlat xaridlari tizimini takomillashtirish va byudjet tashkilotlarida ushbu jarayonning samaradorligini oshirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning samaradorligi va dolzarbligini o‘rganishga qaratildi. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, so‘nggi yillarda davlat xaridlarini tartibga soluvchi qator huquqiy-me’yoriy hujjatlar, “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni (2021-yil, O‘RQ-684-son), davlat xaridlari tizimida shaffoflikni ta’minlash va raqobatni oshirishda muhim qadamlar bo‘lgan. Ushbu qonun asosida davlat mablag‘larini samarali va maqsadli yo‘naltirish imkoniyatlari kengaytirildi. Shu bilan birga, tender jarayonlarini elektron shaklga o‘tkazish orqali inson omilini kamaytirish va korrupsiya xavfini qisqartirishga qaratilgan islohotlar ham sezilarli ta’sir ko‘rsatdi.

Davlat xaridlari jarayonini elektronlashtirishda erishilgan yutuqlar natijasida shaffoflik va ochiqlik darajasi oshgani kuzatilmoqda. Sardor Xamdamovning “Organizing Public Procurement in Uzbekistan: Legal and Procedural Framework” maqolasida ta’kidlanganidek, elektron tizim orqali amalga oshirilayotgan davlat xaridlari korruptsiyani

kamaytirish va tender jarayonida raqobatbardosh muhitni yaratishga xizmat qilmoqda. Ushbu yondashuv raqobatni oshirgan bo‘lsa-da, kichik va o‘rta biznes sub'ektlari uchun davlat xaridlarida faol ishtirok etishda hali ham muammolar mavjud. Kichik korxonalarning xarid jarayonlarida to‘liq ishtirok etishini ta’minlash uchun tender shartlarini yengillashtirish va ularga ko‘proq imkoniyat yaratish zarurati saqlanib qolmoqda.

Davlat xaridlarida moliyaviy nazoratni kuchaytirish ham tadqiqot natijalarida o‘z aksini topdi. Isroilov B.I., Abduganiyev U. X. va Ibragimov B.B. tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda davlat xaridlarida korrupsiya xavfini kamaytirish va moliyaviy intizomni oshirish uchun ichki va tashqi moliyaviy nazorat mexanizmlarini kuchaytirish taklifi kiritilgan. Ular tomonidan taklif etilgan moliyaviy audit va nazorat tizimlari davlat mablag‘larining samarali boshqarilishini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, davlat xaridlarida moliyaviy nazorat tizimini mustahkamlash orqali byudjet mablag‘larining noto‘g‘ri yo‘naltirilishi va maqsadsiz sarflanishi oldini olish mumkinligi ta’kidlangan.

Davlat xaridlari jarayonlarini raqamlashtirish orqali kichik va o‘rta biznes sub’ektlarini qo‘llab-quvvatlash imkoniyatlari mavjudligini ko‘rsatdi. N.G. Muminov va G.M. Zakhirovaning “The Role of Public Procurement in the Digitalization of the Economy and Adoption of E-commerce” maqolasida raqamlashtirilgan davlat xaridlari tizimi orqali savdo maydonchalarida broker xizmatlari joriy etilishi va kichik biznes sub'ektlariga yengilliklar berilishi haqida fikrlar keltirilgan. Ushbu raqamlashtirish jarayonida tadbirkorlik sub'ektlarining davlat xaridlarida ishtirok etishini ta’minlashda ayrim texnik va tashkiliy kamchiliklar mavjud bo‘lsa-da, bu sohada islohotlarning natijalari o‘sishni ko‘rsatmoqda va kelajakda tizimni yanada takomillashtirish talab etiladi. Tadqiqot Davlat xaridlarida raqobatbardoshlik, shaffoflik va samaradorlikni ta’minlash bo‘yicha erishilgan yutuqlar bilan birga, kichik biznes uchun teng imkoniyatlar yaratish va moliyaviy nazorat tizimlarini kuchaytirishga doir chora-tadbirlarni yanada rivojlantirish zaruriyati mavjud. Shu bilan birga, davlat xaridlarini elektron shaklga o‘tkazish bo‘yicha islohotlar natijasida davlat xaridlari jarayonlarida korrupsiya va samarasizlik holatlarini kamaytirish, raqobatni oshirish, davlat mablag‘larini samarali boshqarishni ta’minlashda aniq ijobiy o‘zgarishlar kuzatildi.

Davlat xaridlarini boshqarish bo‘yicha O‘zbekistonda amalga oshirilgan islohotlar, “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonunning qabul qilinishi, davlat mablag‘larining oqilona va shaffof boshqarilishini ta’minlash borasida muhim qadamlardan biri bo‘ldi. Elektron davlat xaridlari tizimining joriy etilishi korrupsiya xavfini kamaytirishga, jarayonni tezlashtirishga va inson omilini kamaytirishga xizmat qilmoqda. Biroq, kichik va o‘rta korxonalarning davlat xaridlarida ishtirok etish imkoniyatlari hali ham cheklangan bo‘lib qolmoqda. Sardor Xamdamov tomonidan olib borilgan tadqiqotda kichik biznes sub’ektlari uchun to‘siqlarni bartaraf etish orqali davlat xaridlaridagi raqobatni yanada oshirish lozimligi ta’kidlangan. Bu esa ushbu islohotlarni yanada chuqurlashtirish zaruratini ko‘rsatadi. Davlat xaridlarida korrupsiyani oldini olish va moliyaviy nazoratni kuchaytirish zarurati ushbu tadqiqotda ko‘tarilgan muhim masalalardan biridir. Isroilov B.I. va uning hamkasblari o‘tkazgan tadqiqotda moliyaviy nazorat tizimini rivojlantirish orqali davlat xaridlarini yanada samarali boshqarish va budjet mablag‘larining samarasiz sarflanishining oldini olish mumkinligi ko‘rsatildi. Ushbu nazorat mexanizmlari nafaqat korrupsiya xavfini kamaytiradi, balki xaridlar jarayonida ochiqlikni ta’minlashga xizmat qiladi.

Raqamlashtirish jarayonida erishilgan yutuqlar bilan birga, bu sohada muayyan texnik va tashkiliy qiyinchiliklar ham mavjud. N.G. Muminov va G.M. Zakhirova tadqiqotida aytilishicha, raqamlashtirish jarayonini yanada takomillashtirish orqali davlat xaridlariga kichik va o‘rta biznes sub'ektlarini kengroq jalb qilish va savdo jarayonlarida ishtirokchilar

uchun qulay imkoniyatlar yaratish mumkin. Biroq, raqamlashtirish jarayonining yetarli darajada rivojlanmaganligi bu jarayonda texnik to‘siqlarni keltirib chiqarmoqda, shu sababli davlat xaridlari jarayonini avtomatlashtirish va raqamlashtirish darajasini oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar zarur. Muhokamalar jarayonida olingan natijalar davlat xaridlari tizimida shaffoflik, raqobatni oshirish va korrupsiyaga qarshi kurash borasida katta yutuqlarga erishilganligini ko‘rsatdi, ammo bu yutuqlarni yanada mustahkamlash va kichik biznes sub'ektlari uchun imkoniyatlarni kengaytirish hali ham dolzarb masala bo‘lib qolmoqda. Shu asosda, davlat xaridlarida samaradorlikni oshirish uchun qo‘shimcha islohotlar va amaliy choralar talab qilinadi.

Xulosa.

Mazkur tadqiqot O‘zbekiston Respublikasida byudjet tashkilotlarida davlat xaridlarini boshqarish tizimini yanada takomillashtirish, shaffoflikni oshirish, korrupsiya xavfini kamaytirish hamda kichik va o‘rta biznes sub'ektlari uchun kengroq imkoniyatlar yaratish yo‘lida amalga oshirilgan islohotlarning samaradorligini baholashga qaratildi. Davlat xaridlarini tartibga solish maqsadida qabul qilingan “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonun va elektron davlat xaridlari tizimi davlat mablag‘larini maqsadli va samarali boshqarishda katta ahamiyat kasb etmoqda. Elektron xarid tizimi orqali inson omilini kamaytirish, davlat xaridlarini adolatli va ochiq sharoitda amalga oshirish imkoniyati yaratildi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, davlat xaridlarini elektron shaklga o‘tkazish orqali shaffoflik va raqobatni oshirish, inson omilini kamaytirish borasida sezilarli yutuqlarga erishilgan. Biroq, kichik va o‘rta biznes sub'ektlari uchun xarid jarayonlarida ishtirok etishda hali ham qiyinchiliklar mavjudligi aniqlandi. Bu muammolar davlat xaridlari jarayonida katta korxonalarning ustunlik qilishi va kichik tadbirkorlar uchun kirish imkoniyatlarini cheklanishi bilan bog‘liq. Shu sababli, kichik tadbirkorlik sub'ektlari uchun imtiyozli sharoitlar yaratish, tender shartlarini soddalashtirish va raqamlashtirish jarayonini rivojlantirish orqali ularning ishtirokini kengaytirish talab etiladi. Davlat xaridlarida moliyaviy nazoratni kuchaytirish va korrupsiyaga qarshi kurash choralarining dolzarbligini tasdiqladi. Xususan, davlat xaridlari jarayonida moliyaviy audit va nazorat tizimlarini mustahkamlash orqali davlat mablag‘larining noto‘g‘ri sarflanishi va maqsadsiz yo‘naltirilishini oldini olish mumkin. Moliyaviy nazoratni kuchaytirish korrupsiya xavfini kamaytirishga yordam berishi bilan birga, xarid jarayonlarida adolatli sharoitlarni ta’minlaydi. Shu bilan birga, ichki va tashqi nazorat mexanizmlarini kengaytirish orqali davlat xaridlarini nazorat qilish tizimini yanada samarali qilish lozimligi qayd etildi. Tadqiqotdan kelib chiqadigan yana bir muhim xulosa – davlat xaridlarini raqamlashtirish orqali savdo jarayonlarida samaradorlikni oshirish va ishtirokchilar uchun qulay imkoniyatlar yaratish zarurligi. Kichik biznes sub'ektlarining davlat xaridlarida ishtirok etishiga yordam beruvchi raqamli texnologiyalarni rivojlantirish, savdo maydonchalari va broker xizmatlarini kengaytirish, texnik va tashkiliy to‘siqlarni bartaraf etish orqali xarid jarayonini yanada qulay va shaffof qilish mumkin. Raqamlashtirish jarayonini chuqurlashtirish kichik tadbirkorlar uchun davlat xaridlarida ishtirok etish imkoniyatlarini kengaytirib, iqtisodiyotni rivojlantirishga ham xizmat qiladi.

Davlat xaridlari tizimini takomillashtirish, shaffoflikni oshirish, kichik tadbirkorlik sub'ektlarini qo‘llab-quvvatlash va korrupsiyaga qarshi chora-tadbirlarni kuchaytirish O‘zbekistonning iqtisodiy barqarorligini ta’minlashda muhim omil hisoblanadi. Tadqiqot natijalari asosida davlat xaridlari sohasidagi islohotlarni davom ettirish, tizimni yanada modernizatsiya qilish va mavjud muammolarni hal qilish uchun qo‘shimcha chora-tadbirlar zaruriyati kelib chiqmoqda. Shu bilan birga, davlat xaridlarini yanada samarali, adolatli va ochiq amalga oshirish orqali iqtisodiy taraqqiyotga erishish, resurslarni oqilona

boshqarish va aholining davlatga bo‘lgan ishonchini yanada mustahkamlash mumkin. Bu esa davlat xaridlarining iqtisodiyotni qo‘llab-quvvatlovchi va barqaror rivojlanishga xizmat qiluvchi vosita sifatida yanada samarali faoliyat yuritishini ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. **O‘zbekiston Respublikasi Qonuni “Davlat xaridlari to‘g‘risida”**. (2021-yil 22-aprel, O‘RQ-684-son).
2. **Xamdamov, S.** (2024). *Organizing Public Procurement in Uzbekistan: Legal and Procedural Framework*. European Journal of Business Startups and Open Society, 12(4), 45-60.
3. **Isroilov, B.I., Abduganiyev, U.X., Ibragimov, B.B.** (2020). *Financial Control of Public Procurement to Prevent Corruption in the Development of Digital Economy*. Advances in Economics, Business and Management Research, 138, 546-550.
4. **Muminov, N.G., Zakhirova, G.M.** (2020). *The Role of Public Procurement in the Digitalization of the Economy and Adoption of E-commerce*. St.
5. **OECD** (2019). *Government at a Glance 2019*. Paris: OECD Publishing.
6. **Transparency International** (2020). *Corruption Perceptions Index 2019*.
7. **United Nations Office on Drugs and Crime (UNODC)** (2021). *Guidebook on Anti-Corruption in Public Procurement*. Vena: UNODC.
8. **Deloitte** (2020). *Digital Procurement: The Benefits of e-Procurement Transformation*. London: Deloitte Insights.
9. **World Bank** (2018). *Benchmarking Public Procurement 2018: Assessing Public Procurement Regulatory Systems in 180 Economies*. Washington, DC: World Bank.
10. **European Bank for Reconstruction and Development (EBRD)** (2019). *Transition Report 2019-20: Better Governance, Better Economies*. London: EBRD.